


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, O.Q.Xasanova	
So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	5
N.M.O'ranova, M.A.Qodirjonova	
Talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning samarali usullari.....	9
D.M.Begmatova	
Individual yondashuv asosida talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirish jarayonida foydalilaniladigan texnologiyalarni tanlash tamoyillari	14
Kh.O.Jurayev D.Kh.Fayziyeva	
The role of media competence in the work of a teacher	18
D.G.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning nazariy jihatlari	22
F.I.Sharipova	
Tibbiyot oliygochlarda ingliz tilining akademik yozish o'qitish masalari	26
M.A.Tuxtabayev	
Janubiy Koreya ta'lif tizimida muhandislik kadrlarini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi.....	33
S.R.Uraimov, M.Sh.Abdubabbov	
Umumiylar mifik tablarida interaktiv trenajyorlardan foydalanish orqali jismoniy mashg'ulotlarni takomillashtirish.....	37
S.R.Uraimov S.G.G'ofurov	
Umumiylar mifik tablarida jismoniy tarbiya uchun innovatsion mobil ilova yaratish va uning samaradorligini o'rganish	41
S.B.Qodirov	
Yoshlarimiz ma'naviyati va intellektual salohiyatini oshirish ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari	46
A.R.Saydullayeva	
Bo'lajak o'qituvchilarida ma'naviy ideallar vositasida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	50
D.A.Abdusamiyev	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida shaxs sifatida shakllanishi va uning maktab muhitiga moslashishi.....	55
A.X.Gafforov	
Maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlarni loyiha metodi asosida tashkil etishda raqamli ta'lif resurslarini qo'llash	59
F.V.Xalilov	
Ta'lifni raqamlashtirish sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolari.....	63
A.M.Mirzakulov, G.I.Yuldasheva	
Analogik muhitda kinematik hodisalarining simulyatsiya modellarini yaratish va o'qitish metodikasi.....	67
S.R.Toshboyeva, S.I.Usmonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diagrammalar asosida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.....	72
M.E.Yulchiev	
Psychological and pedagogical foundations for establishing an integrative e-learning environment in energy-related technical education.....	76
M.O.Ismoilova	
O'quvchilarida kitob mutolaasi madaniyatini shakllantirish usullari.....	81
U.I.Obidjanov	
Biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalarning roli va imkoniyatlari	85
A.M.Tishabaev	
1991-2005-yillarda O'zbekistonda milliy va ommaviy sport turlarining rivojlanishi.....	91



УО'К: 531:004.94:371.3

**ANALOGIK MUHITDA KINEMATIK HODISALARING SIMULIYATSIYA MODELLARINI
YARATISH VA O'QITISH METODIKASI**

**МЕТОДИКА СОЗДАНИЯ И ОБУЧЕНИЯ МОДЕЛИРОВАНИЮ КИНЕМАТИЧЕСКИХ
ЯВЛЕНИЙ В АНИЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЕ**

**METHODOLOGY FOR CREATING AND TEACHING MODELING OF KINEMATIC
PHENOMENA IN AN ANILOGIC ENVIRONMENT**

Mirzakulov Abdurasul Meliqo'ziyevich¹ 

¹Farg'ona davlat universiteti fizika-matematik fanlari nomzodi, dotsent

Yuldasheva Gulbahor Ibragimovna² 

²Farg'ona davlat universiteti dotsent

Annotatsiya

Maqolada anylogic dasturidan foydalangan holda fizika kursining kinematik hodisalarini modellashtirish bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqot echimlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ularning imkoniyatlari modellashtirishning kinematik hodisalarini modellashtirishda ishlatalidigan ontologik uskunalarga asoslangan. AnyLogic muhitida yaratilgan kinematik hodisalarni modellashtirish vizual ravishda namoyish etiladi va o'quv jarayonida foydalanish usullari sohasidagi tadqiqotlar bayon etiladi.

Аннотация

В статье рассмотрены научно-методические исследовательские решения по моделированию кинематических явлений курса физики с использованием программного обеспечения AnyLogic. Также в основе их возможностей лежит Анилогическое оборудование, используемое при создании моделирования кинематических явлений моделирования. Модельное моделирование кинематических явлений, созданных в среде AnyLogic, демонстрируется наглядно и излагаются исследования в области методов использования в учебном процессе.

Abstract

The article discusses scientific and methodological research solutions for modeling kinematic phenomena of a physics course using AnyLogic software. Their capabilities are also based on the Ontological Equipment used to create the modeling of kinematic modeling phenomena. The model modeling of kinematic phenomena created in the AnyLogic environment is demonstrated visually and research in the field of methods of use in the educational process is presented.

Kalit so'zlar: AnyLogic, Simulyatsiya modellashtirish, AnyLogicda ishslash, AnyLogic uskunalar vositasi muhiti, obyekt hususiyatlari

Ключевые слова: AnyLogic, имитационное моделирование, работа в AnyLogic, инструментальная среда AnyLogic, свойства объектов

Key words: AnyLogic, Simulation modeling, Work in AnyLogic, AnyLogic equipment environment, object properties.

KIRISH

Turli jarayonlarning kompyuter modellarini yaratish va o'rganish uchun ko'plab dasturiy ta'minotlar (Maple, MathCad, MATLAB va boshqalar) ishlab chiqilgan. Ushbu dasturiy vositalar differentsial tenglamalar tizimini o'rganish, turli xil hisob-kitoblarni bajarish va funktsiya grafiklarini qurish imkonini beradi [1-3].

Yuqorida dasturiy vositalar fizik, kimyoviy texnik hodisalarning imitatcion modellarini yaratish va boshqarish imkoniyatlariga ega emas.

Crocodile Physics, Crocodile matematiks, Phizical Education Ternology, Crocodile Himiks, Crocodil tehnologiy kabi dasturiy muhitlarda tabiiy fanlarning simulyatorlaridan o'quv jarayonida foydalanish asoslari berilgan [4].

Ko'pgina kompyuter tizimlarida mavjud bo'limgan imitatsion matematik modellashtirish jarayonlari, standart dinamik tizimlarni o'rganish vositalari AnyLogic dasturiy muhitida amalga oshiriladi.

AnyLogic matematik modellarni yaratishga asoslangan obyektga yo'naltirilgan muhitdir. Bu shuni anglatadiki, fizik, kimyoiy, texnologik qonunni ifodalovchi hodisalar, maydonlar, xususiyatlar to'plamiga ega bo'lgan obyekt o'zgaruvchilari (sinf namunalari) modellarni yaratish va animatsiyalarni yaratish uchun imkoniyatlarga ega bo'lgan vizual muhitdir.

Tadqiqot obyekti yaratilayotgan fizika fanidagi kinematic hodisalarni kompyuterli modellashtirishning simulyatsiyasini o'rganish jarayonidan va yaratilgan modelni o'quv jarayonida foydalanish muammolarini uslubiy tadqiqot sifatida o'rganishdan iborat.

Tadqiqot predmeti sifatida AnyLogic platformasida o'quv jarayonida qo'llaniladigan kompyuterli kinematic hodisalarni matematik modellashtirishga asoslangan simulyatorlarni yaratishga doir ishlasmalarni bayon qilishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi – tabiiy fizik hodisani ifodalovchi vizual simulyatsiya modelini ishlab chiqish, loyiha kirgan obyektlarning xususiyatlarini boshqarish, simulyatsiya modelining boshqaruvi strategiyasini topish, simulyatsiya imkoniyatlarini ko'rsatish muammolarni hal qilish usullarini o'rganishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

AnyLogic dasturi immitatsion modellar yaratish sohasidagi eng zamonaviy dasturiy vositalardan biri. AnyLogic dasturida turli sohalardagi yakunlangan simulyatsion model namunalari namuna sifatida keltirilgan [5].

Maqola mualliflari kinematic hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan modellar yaratish sohasidagi ishlasmalarni o'rganganlar va tahlil qilganlar [6].

AnyLogic muhitida simulyatsiya vositasidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalasi S. Suslovning "Biznes - bu soha tajribalar uchun" maqolasi yangi boshlovchilar uchun ahamiyatliti [7]. Muallif AnyLogic dasturiy ta'minotning eng muhim afzalliklarini ta'kidlab, simulyatsiya modellashtirish tushunchasini, nima uchun zarurligini, dasturiy ta'minotning asosiy imkoniyatlarini bayon qilib bergen.


NATIJA VA MUHOKAMA

Maqolada AnyLogic muhitida bajariladigan, vaqt o'tishi bilan simulyatsiya qilingan obyekt yoki hodisani aks ettiruvchi dasturiy ta'minot tizimini ishlab chiqish va simulyatsiya modelini yaratish jarayoni o'rganilgan.

AnyLogic muhitida fizikaning kinematic hodisalar modelining simulyatorini yaratib uni o'quv jarayonida namoyish qilishda AnyLogicning kutubxonalaridan foydalaniladi. AnyLogic kutubxonalar ma'lum bir modellashtirish muammosini hal qilish yoki muayyan dastur sohasini tavsiflash uchun yaratilgan elementlar to'plamidir. AnyLogic quyidagi standart kutubxonalar to'plamini o'z ichiga oladi.

Turli dasturlarda matematik model yordamida fizikaviy hodisalarni modellashtirish mumkin. Maqolada AnyLogik dasturidan foydalanib, fizik hodisada ishtirot etuvchi har bir jismni obyekt deb qarab, kinematic hodisaning haqiqiy holati sifatida vizual modellashtirishni hisobga olib, yo'l va harakatlanuvchi transportni alohida obyekt deb qaraldi.


Buning uchun AnyLogic muhitida jarayonlarni modellashtirish kutubxonasidan foydalanib, rasmida ko'rsatilgan shaklda modellashtiramiz.



PEDAGOGIKA

Rasmdan ko'rindik, palitraning jarayonlar kutubxonasidan yo'l tanlanadi, main darchasida avtomobil yo'lini ixtiyoriy shaklda tasvirlashi mumkin. Shu holatda AnyLogic muhitning chap qismida yo'lni obyekt sifatida qaralib svoystva darchasida yo'lning ixtiyoriy xususiyatlarini: yo'l nomi, yo'lakchalar soni, yo'l rangi, boshlang'ich koordinatalari va boshqalarni o'zgartirish mumkin. Jismning kinematik harakati jarayoni yo'l harakati kutubxonasi bloklaridan yaratilgan diagramma yordamida amalga oshiriladi. Kutubxona imkoniyatidan foydalanib jismning kinematik harakatini 3D yoki 2D animatsiyasini yaratishni amalga oshirish mumkin bo'ladi.

AniLogic muhitida kinematik hodisalarining simulyatsion modellarni qurishda, barcha modellar statistik ma'lumotlarni yig'ish uchun bloklardan foydalanadi (statistika, o'rtacha vaqt_ma'lumotlari, o'rtachaSpeed_data). Buning uchun rasmida keltirilgan blok sxemani yig'ish zarur.




2-rasm. Tanlangan obyekt xususiyatlari

CarSource avtomobillar manbasi bo'lib, ma'lum bir agentlar (avtomobillar) tomonidan yaratilgan. CarSource tufayli simulyator ishga tushirilganda yo'lning boshlang'ich qismida avtomobil intensivligi paydo bo'ladi va avtomobil obyektingin o'rnatilgan xususiyatlariga mos holda kinematik harakatda ishtirok etadi. Loyihada ikkita yo'l keltirilgan. Yo'llarga nom berilgan. Forwardroad – jismning oldinga harakatlanish yo'li bo'lib, jism tekis tezlanuvchan harakatda ishtirok etadi. AnyLogic muhitda jism harakat xususiyatlarini o'rnatish bilan boshqariladi. CarSource oldinga harakatlanadigan jismlarning xususiyatlarini yuqoridagi rasmdan foydalanib o'rnatish mumkin, ya'ni, boshlang'ich tezligini, oxirgi tezligini, jismning harakat qilishi zarur bo'lgan yo'lni o'rnatish mumkin. Agar jismning yo'ldagi boshlang'ich va oxirgi tezligi bir xil o'rnatilsa, jism tekis harakatda, aks holda o'zgaruvchan tezlikda ishtirok etadi.

carMoveToForward bloklari avtomobilarni oldinga yo'nalgan yo'l bo'ylab yoki belgilangan to'xtash chizig'iga olib borish uchun harakatni amalga oshiruvchi komponentdir. carExit avtomobilni oldinga yo'nalgan yo'l oxiriga yetkazib, yo'ldan chiqarish uchun tayinlangan komponent.

carEnter orqaga yonalgan yo'lga avtomobilarni kiritish uchun tayinlangan. Bu orqaga qaytayotgan avtomobilarning barcha xususiyatlarini foydalanuvchi to'liq o'zgartira oladi.



3-rasm. AnyLogic muhitida avtomobil harakat modeli

carMoveToBackward bloklari avtomobilarni orqaga yo'nalgan yo'l bo'ylab yoki belgilangan to'xtash chizig'iga olib borish uchun harakatni amalga oshiruvchi komponentdir carDispose bloklari agentlarni yo'q qilish uchun ishlatalidi.

Rasmdan ko'rindiki, oldinga va orqaga yo'nalgan yo'llarni bog'lash berilmadi, chunki u yerda jismning egri chiziqli harakati qo'shilgan bo'ladi.

Modelning barcha kerakli elementlarini qo'shgandan so'ng, ularning har biri vazifa shartlariga muvofiq "Xususiyatlar" yorlig'ida o'rnatilgan o'z parametrlariga ega.

Simulyatorni ishga tushirish orqali fizika kursidagi to'g'ri chiziqli tekis, tezlanuvchan, sekinlanuvchan harakatlarni namoyish etish mumkin.

Shunday qilib, kinematikada mexanik harakat fizik hodisa (va uning o'ziga xos ko'rinishlari) va uning asosiy xususiyatlari sifatida o'rganiladi.

"Mexanika" bo'limini o'rganishning boshida mexanik harakat tushunchasi yuqoridagi simulyator ishga tushirilsh bilan kiritiladi, avtomobil vaqt o'tishi bilan yo'l koordinatasiga nisbatan o'quvchilarning tasavvurlarini shakllantiradi va mexanikaning asosiy (to'g'ridan-to'g'ri) vazifasi shakllantiriladi. Vaqt o'tishi bilan moddiy nuqtaning ushbu pozitsiyasining o'zgarishi holati va xususiyatini tavsiflovchi fizik tushunchalarni kiritish zarurligi asoslanadi. Bu holda kinematikaning asosiy tushunchalari koordinata, yo'l, harakat, tezlik, tezlanish, traektoriya tushunchalari o'quvchida paydo bo'ladi. mexanik harakatni tasvirlash kinematik miqdorlarning o'zgarishi tabiatini tasvirlay olish, ya'ni jismning harakat tenglamalarini (moddiy nuqta) yozib olishni anglatadi.

XULOSA

Anylogic muhitida kinematik hodisalarini modellashtirish yordamida fizik qonunlarni chuqur o'ganish, loyihalash va o'qitish vositasi sifatida keng foydalanish imkonini maqolada bayon qilingan.

Maqolada bayon qilingan simulyatsiya natijalari shuni ko'rsatadiki, adaptiv boshqaruvi tizimlarini o'rnatish vaqtini qisqartirishga imkon beradi, kinematic hodisalarining qonuniyatlarini o'quvchilar tomonidan samarali o'zlashtirish imkonini beradi. O'quvchilar mustaqil ravishda fizik hodisalarini Anylogic muhitida modellashtirish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Maqola Anylogic dasturining kutubxonalaridan foydalanib kinematik jarayonlarning diskret-hodisa simulyatsiya modelini ishlab chiqish sohasidagi dastlabki ishlanmadir.

Fizikaning boshqa qonunlarini ham o'rganishda Anylogic muhitida diskret hodisa simulyatsiyalarini yaratish dolzarb o'rganish obyektiidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. В.З. Аладьев, В.К. Бойко, Е.А. Ровба “Программирование в пакетах Maple и Mathematica: Сравнительный аспект” / Монография / Гродно: Гродненский Госуниверситет, 2011, 517 с.
2. Чарльз Генри Эдвардс, Дэвид Э. Пенни. Дифференциальные уравнения и краевые задачи: моделирование и вычисление с помощью Mathematica, Maple и MATLAB. 3-е издание. Киев.: Диалектика-Вильямс, 2007. ISBN 978-5-8459-1166-7.
3. Е. Р. Алексеев, О. В. Чеснокова. Решение задач вычислительной математики в пакетах MathCAD 12, MATLAB 7, Maple 9. М: НТ Пресс, 2006, 496с. ISBN: 5-477-00208-5.
4. G.Yo'ldasheva Физика фанини педагогик дастурий воситалар асосида ўқитишда интелект ривожланиши соҳасидаги илмий услубий тадқиқотлар. Монография. Фарғона -2021 й. 90 б.
5. Карпов Ю.Г. Имитационное моделирование систем. Введение в моделирование с AnyLogic 8[Текст]: учебник / Ю.Г. Карпов. — Санкт-Петербург. 2017.
6. ООО “Экс ДжейТекнолоджис” [Электронный ресурс]. (2018) Режим доступа: <http://www.xjtek.ru/>(дата обращения: 02.01.
7. Суслов А.С. Бизнес — это поле для экспериментов [Текст] / А. С. Суслов // (2009) Рациональное управление предприятием. №4. С. 12–14